



MUZEYLAR-O‘TMISH BILAN KELAJAKNI BOG‘LOVCHI KO‘PRIK.

Azizova Shoiraxon G‘ulomovna,

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bo‘lim boshlig‘i.

Azizov Muhammadali Asqarali o‘g‘li,

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi xodimi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603796>

Annotatsiya. Muzeylar biz uchun qadrli bo‘lgan xalq tafakkurini yanada boyitadigan, o‘tmishni chuqur o‘rganish, ayniqsa, yoshlar qalbida Vatanga, xalqqa bo‘lgan muhabbatning yuksalishiga, ezgulikka xizmat qiluvchi dargoh hisoblanadi. Ushbu maqolada muzeylarning xalqimiz uchun qadrli bo‘lgan moddiy merosni saqlashda muzeylarning o‘rni, bu borada Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Muzeyshunoslik, me‘yoriy hujjatlar, virtual muzeylar, moddiy meros, noyob eksponatlar, kolleksiya, uchinchi renessans.

Annotation. Museums are places that further enrich our people’s thinking and help us study the past more deeply. They also play an important role in strengthening love for the Motherland among young people and building them towards goodness. This article discusses the importance of museums in preserving the valuable material heritage of our people and highlights the work being carried out in this regard at the Fergana Regional State Museum of History and Culture.

Keywords: Museology, archival documents, virtual museums, material heritage, rare exhibits, collections, the Third Renaissance.

Keyingi yillarda yurtimiz tarixiga, qadriyatlarga, ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va nomoddiy madaniy merosga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Yurtimizdagi barqarorlik zamirida, eng avvalo, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo‘yish, adolatni ta‘minlash tamoyili turibdi.

O‘zbekistonda, shu jumladan viloyatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar yangi tafakkur, yangicha g‘oyalar tobora keng quloq yozib borayotganini ko‘rsatadi. Istiqlol bizga yuksak hayotiy qadriyatlarimizni dunyoga ko‘z-ko‘z qilish imkoniyatini yaratib berdi. O‘z o‘rnida dunyo eshiklari ham biz uchun keng ochildi. Hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan me‘yoriy hujjatlar O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimining shakllangan muzeylar tizimini, yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma‘naviy — ahloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g‘urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, moddiy — texnika bazasini mustahkamlash imkonini bermoqda. Muzey xodimlari fondlarda yillar davomida saqlanib



kelayotgan, xalqimizning boy tarixidan guvohlik beruvchi noyob nodir eksponatlarni avaylab asrash, ularni ilmiy tomonlarini o‘rganish, ta‘mirlash, yangi eksponatlar bilan muzey zallarini boyitish bilan shug‘ullanmoqdalar.

Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 26 mayda imzolangan “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 dekabrda “2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me‘yoriy hujjatlar biz, muzey xodimlari zimmasiga ham katta mas‘uliyat ham yuklab, faoliyatimizni yanada rivojlantirib, yuqori bosqichlarga olib chiqish borasida dasturulamal bo‘lmoqda.

Muzeylar madaniy-ma‘rifiy muassasa sifatida tarixiy, moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish bilan umummadaniy ishga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Muzeylar faoliyati insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo‘lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy-ma‘naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylar faoliyatini o‘rganish natijasida kelib chiqadigan estetik badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, voqea-hodisalarni, atrof muhitdagi jarayonlarni turfa shakl-shamoyilda qaytadan aks ettirishga havas uyg‘otadi.

Yurtimizda 18 may Xalqaro muzeylar kuni deb belgilangan. Poytaxtimizda yirik muzeylardan Temuriylar tarixi, O‘zbekiston tarixi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi, Adabiyot va San‘at muzeylari, Geologiya, Tabiat muzeylari, Olimpiya shon-shuhrat muzeyi, O‘zbekiston qurolli kuchlari, Sog‘liqni saqlash va bir qator soha muzeylari mavjud. Bular saqlayotgan yurtimizga doir yodgorliklar bilan o‘ziga hatto dunyoning u chetida yashaydigan insonlarni ham jalb qilibgina qolmay, balki ularni maxliyo qiladi, lol qoldiradi, o‘lkamiz tarixi, boy merosi, madaniyati haqida saboq berib turadi.

Bobir Boltaev “Muzeyshunoslik” o‘quv-qo‘llanmada muzeylar mazmun jihatdan quyidagi turlarga birlashadi:

-Tarix muzeylari, tarix-arxitektura va tarixiy adabiyot muzeylari, o‘lkashunoslik muzeylari, xotira-yodgorlik muzeylari, san‘at muzeylari, sohali muzeylar, qo‘riqxonalar muzeylari va boshqalar. [1,b.11]

Bulardan tashqari xalq maorifi, sog‘liqni saqlash, boshqa korxonalar tarixini yorituvchi, maktablarda tashkil etilayotgan hududiy tarixiy joy va insonlar faoliyatiga oid muzeylar ham faoliyat yurgizmoqdalar. Bu ishlarni tashkil etishda asosan muayyan soha fidoiylari, jamoatchi, tarixchi mutaxassislar, o‘qituvchilar faol qatnashadilar.

Muzey ijtimoiy vazifasiga ko‘ra ilmiy tadqiqot-ma‘rifat (muzeylarning ko‘pchiligi asosan shu vazifani o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, ularni ommaviy muzeylar deb ham yuritishadi); tadqiqot (ilmiy-tadqiqot institutlari qoshida o‘ziga xos laboratoriya vazifasini o‘taydi) va o‘quv muzeylariga, yo‘nalishi va



kolleksiyalariga qarab tarmoq, o‘lkashunoslik (kompleks) va memorial muzeylarga bo‘linadi.

Tarmoq muzey ishlab-chiqarish, fan, san’atning biror tarmog‘iga tegishli bo‘ladi (masalan, tarix muzeylari, zoologiya muzeylari). O‘lkashunoslik muzeylari muayyan ma’muriy hududning tarixi, tabiati, xo‘jaligi, san’ati, etnografiyasi va boshqa sohalarini kompleks aks ettiradi. Memorial muzeylar muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarga bag‘ishlanadi.

Muzeylar bilan birga muzeyshunoslik fani ham taraqqiy etmoqda. Muzeyshunoslik fani bo‘lg‘usi muzey xodimlarining oldiga mustaqil Respublikamizda muzey ishlarini rivojlantirish, aholini unga qiziqtirish va jalb qilish, ularning faoliyatini targ‘ib qilish vazifasini qo‘yadi. Muzeyshunoslik fani qamrab olgan jihatlar, ya’ni respublikamizda muzeylarning tashkil topish tarixi, ularni tashkil etishda mahalliy to‘plovchi-yig‘uvchilarning o‘rni, muzeyga to‘plangan ashyolarning mazmun va ma’no jihatdan umumlashtirilishi, muzey tuzilishi uslubi, muzeylarning yig‘uv-to‘plov, ilmiy sharhlov hamda noshirlik faoliyatining ilmiy asoslari, muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish va takomillashtirish, ularni targ‘ib va tashviq qilishda muzey xodimlarining nutq mahorati, bozor iqtisodiyoti sharoitida muzey ishlarini yangi shakl va uslublardan foydalanish evaziga jonlantirib borish kabi xilma-xil vazifalarni bajarishga ko‘nikma hosil qilinishi uchun talabalarga keng va ilmiy asosda bilim berilishi taqozo qilinadi.[2,b.23].

Muzeylar tarixiy xotirani jonlashtirish omili bo‘lib xizmat qilar ekan, unda namoyish etilayotgan materiallar ashyoviy dalil sifatida o‘z davriga xos xususiyatlarini aks ettirishi, o‘sha davr madaniyati, san’atidan beradigan xabari bilan juda qimmatlidir. Ular xalqimizning yuksak rivojlangan madaniyati, adabiyoti, san’ati hamda ma’naviy dunyoqarashiga asoslangan xususiyatlari bilan tomoshabin e’tiborini qozonadi. Unda bevosita shu buyumlarda aks etgan joziba, sehr, geometrik aniqlik, kimyoviy barkamollik, qurilish-arxitektura inshootlarining o‘ta aniq va pishiq loyihalariga nisbatan inson aqlini lol qoldiradigan bir ta’sirini uyg‘otadiki, bu uning beixtiyor faxrlanish, qoyil qolish va undan o‘rnak olib yangi san’at asarlarini yaratish sari ilhom uyg‘otadi.

Farg‘ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida milliy madaniy merosimiz asarab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilyapti. Ushbu muzey O‘zbekistondagi eng keksa muzeylardan sanaladi. Uning tashkil etilishiga 1894 yilning kuzida Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona) shahrida bo‘lib o‘tgan qishloq xo‘jaligi va sanoati ko‘rgazmasi asos bo‘lgan. 1897 yilda muzey nizomi tasdiqlangan bo‘lsa, 1899-yilning 26-may kuni “Farg‘ona viloyat xalq muzeyi” nomi bilan tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘sha vaqtda kelib muzeyda 2223 dona eksponat yig‘ilgan. E’tiborli tomoni shundaki, o‘sha paytdagi ekponatlar hozirgi kunda ham ko‘rgazma zalidan joy olgan. Yillar davomida muzeyimizdagi eksponatlar ko‘payib borib, bugunga kelib



ularning soni 90 mingtadan oshdi. Tomchida quyosh aks etadi deganlaridek, har bir eksponat o‘tmishning qaysidir bir davrini o‘zida ifoda qiladi.

Muzeyning 5 ta filiali bo‘lib, Marg‘ilon shahar tarixi, Erkin Vohidov memorial, Uvaysiy uy-muzeyi, Oltiariq tumanida Erkin Vohidov uy-muzeyi, Uchko‘prik tumanida Haziniy uy-muzeylari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Muzey ilmiy xodimlari oldidagi muhim vazifalardan biri ilg‘or va zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g‘oyalarni tatbiq etgan holda xizmat sifatini oshirish. Xususan, virtual muzeylar milliy madaniy yutuqlarning yorqin timsoli hisoblanadi. Noyob eksponatlarni 3D ko‘rinishini ishlash va saytga joylash, elektron katalogni yaratish bo‘yicha ishlar qizg‘in davom ettirilmoqda. Bunday katalog muzey ihlosmandlariga virtual sayohat qilish imkonini beradi.

Muzeyga tashrif buyuruvchilar e‘tiborini o‘ziga tortadigan eksponatlar ko‘p. Shunday eksponatlar qatorida XIX asrning oxirlariga oid mebellar jamlanmasini aytib o‘tishimiz mumkin. Ushbu mebellar dastlab viloyat xarbiy gubernatorining ish kabinetini bezagan bo‘lsa, oktabr to‘ntarishidan keyin drama truppa sahnasida fon vazifasini o‘tagan. Ikkinchi jahon urush yillaridan keyin mebel viloyat mamuriyati binosida uzoq muddat foydalanildi. Va nixoyat 1990-yillarda viloyat ma‘muriyatining qaroriga asosan muzeyga topshirildi. Shundan buyon ushbu mebellar muzeyimizning asosiy eksponatlari qatorida xalqqa namoyish etib kelinmoqda. Bu mebellar XIX asrning oxirlarida viloyat general gubernatori buyurtmasiga asosan Yevropada mumtoz usulda, eman daraxtidan yuqori saviyada ustalik, estetik did bilan ishlangan. Ulardagi zoomorfik, antroporfik shakllar insonni lol qoldiradi. Murakkab me‘moriy shakllar va o‘ymakorlik ishlari Yevropaning mumtoz usulini o‘zida aks ettirgan. Mebelni bezashda turli mavzular asos qilib olingan bo‘lib, qadimiy ko‘rinish va antroporf, zoomorf, ya‘ni sher, ilon, ajdaho boshlari, o‘simlik va murakkab geometrik kabi shakllarni ko‘rish mumkin. Afsuski, muzeyda mebelning to‘liq majmuasi yig‘ilmagan. Uning ayrim qismlari hozirga qadar shaxsiy qo‘llarda saqlanmoqda.

Muzeyimizning arxeologiya kolleksiyasida 8 mingdan ortiq buyumlar saqlanmoqda. Ular orasida yuqori san‘at bilan ishlangan va tarixiy ahamiyatga ega namunalar oz emas. Bu osori atiqalar Farg‘onaning tosh asridan boshlab to hozirga qadar bo‘lgan tarixi haqida yetarli darajada ma‘lumot beradi, shuningdek ilmiy izlanishlar olib borayotganlar uchun ham bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiat bo‘limi ekspozitsiyasidagi noyob toshlar, qotirilgan hayvonlar, noyob landshaftlar diaramalari ham tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, tog‘, adir, cho‘l, g‘or diaramalari kishiga vodiy tabiatining o‘ziga xos jihatlari, go‘zalligi haqida aniq tasavvur paydo qilish imkonini beradi.

Tarix bo‘limidagi osori atiqalar esa kishini beixtiyor o‘tmish sari yetaklaydi. Eksponatlar bilan tanishar ekansiz, ko‘z o‘ngingizda qadimgi, o‘rta asrlar, xonliklar davridagi xalqning hayoti, yuz bergan voqealar jonlangandek bo‘ladi. Hunarmandchilik buyumlari, amaliy san‘at namunalarini ko‘rib zavqlanasiz.



Muzeyda tez-tez taniqli rassom, fotograflarning asarlari namoyish etib turiladi. Kartina va fotosuratlarda bolalarning o‘ziga xos dunyoqarashlari, orzu-umidi, intilishlari o‘z aksini topgan.

Muzey maktab o‘quvchilari, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar uchun sevimli maskanga aylangan. Muzey ma‘muriyati, xodimlar tashrif buyuruvchilarga qulaylik yaratish, sifatli xizmat ko‘rsatish, lozim bo‘lsa ilmiy-uslubiy yordam berish ishlarini yaxshi qo‘yishga harakat qilmoqda. Fond zahirasi esa yangi topilmalar bilan boyitilib, ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

Biz o‘z oldimizga, uchinchi renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, uni ro‘yobga chiqarishda madaniyat muassasalarining, shu jumladan muzeylarning ham o‘z o‘rni bor. Bugungi kunda mamlakatimizda ulkan yangilanishlar, misli ko‘rilmagan beqiyos bunyodkorlik ishlariga guvoh bo‘lib turibmiz. Yurtimizda siyosiy, iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda madaniyat sohasiga ham jiddiy e‘tibor qaratilmoqda. Zero, yosh avlodni buyuk ajdodlar ruhiga, o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtiga mehr-muhabbat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muzeylar ham katta tarbiya maktabidir. Milliy boylıklarimiz bizga ota-bobomizdan meros bo‘lib qolgan. Ularni ko‘z qorachig‘iy asrash, kelgusi avlodlarga beshikast yetkazish biz uchun ham farz, ham qarz. O‘z tarixi, madaniyati, urf-odatlariga hurmat bilan qaragan jamiyat hamisha rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.5-tom. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2002-yil.
2. Bobir Boltaev. “Muzeyshunoslik”. O‘quv-qo‘llanma. “Durdona” nashriyoti, Buxoro, 2016-yil
3. “Moziydan sado” jurnali, 2007-yil, 4-son.
4. Jabborov I. “O‘zbek xalq etnografiyasi”. Toshkent,1997-y.
5. Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari.